

2023- yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

6 544,2

YAHM o'sish
sur'ati

104,2 %

YAHM deflyator
indeksi

118,3 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-martida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 6 544,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlariga nisbatan 118,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
I. YAHM, jami	5 312,4	6 544,2	104,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 119,4	6 344,6	104,1
mahsulotlarga sof soliqlar	193,0	199,6	106,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 119,4	6 344,6	104,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 430,1	1 914,6	103,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	931,9	1 155,7	105,5
sanoat	380,6	523,7	103,0
qurilish	551,3	632,0	107,3
xizmatlar	2 757,4	3 274,3	104,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	661,3	754,0	100,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	315,7	381,3	111,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 780,4	2 139,0	104,4




YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 325,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 % ga yuqoridir.

2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,4	97,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	3,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	27,9	30,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,2	18,3
sanoat	7,4	8,3
qurilish	10,8	10,0
xizmatlar	53,9	51,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,9	11,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	6,0
boshqa xizmat tarmoqlari	34,8	33,6

2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi 27,9 %

Sanoat 7,4 %

Qurilish 10,8 %

Xizmatlar 53,9 %

2023- yil



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi 30,2 %

Sanoat 8,3 %

Qurilish 10,0 %

Xizmatlar 51,5 %

● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 30,2 % ni, sanoat tarmog'i 8,3 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 51,5 % ni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM
o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga
nisbatan % da)

YAHM



4,2

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi



0,8

Sanoat



0,2

Qurilish



0,8

Xizmatlar



2,2

Mahsulotlarga
sof soliqlar



0,2

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,2 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 2,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM




Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish



Xizmatlar



2023- yilning yanvar-martida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,2 %), sanoatda – 103,0 % (8,3 %), qurilishda – 107,3 % (10,0 %), xizmatlar sohasida – 104,2 % (51,5 %)ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100,0 % (11,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,8 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % (33,6 %) dan iborat bo'ldi.




2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




2023- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 118,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 133,6 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 130,0 % qayd etildi.



Qurilish



Xizmatlar



2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida
kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da
2022- yil	3 521,7	68,8
2023- yil	4 375,5	69,0

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 4 375,5 mlrd. so'm (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 3 521,7 mlrd. so'm)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 69,0 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 68,8 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

